

ZAMONAVIY PSIXALOGIYANING RIVOJLANISHI.

SHAVKATOVA IRODAXON.

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIK INSTITUTI.

MAKTABGACHA TA'LIM FAKULTETI.

MAKTABGACHA TA'LIM PEDAGOGIKASI VA PSIXOLOGIYASI

YO'NALISHI 101-GURUH

Annotatsiya

Ushbu maqolada psixalogiya nima ekanligi, psixalogiyaning o'ziga xosligi, ko'plab psixologiyaga doir bo'lgan darsliklar, o'quv-qo'llanmalar chop etiliyoganligi haqida. Bugungi kunda psixologiya fanining o'rni, qaysi davrlarda tashkil topganligi va yurtimizda rivojlanish tarixi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Pedagogik psixologiya, o'quv qo'llanmalar, tarbiya masalalarini yoritilishi, psixologiya fani, psixik hayot.

Ключевые слова: Педагогическая психология, методические пособия, разъяснение учебных вопросов, психологическая наука, психическая жизнь.

Key words: Pedagogical psychology, teaching manuals, clarification of educational issues, psychological science, mental life.

Psixologiya — inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, hislatlar to'g'risidagi fan. Psixologiyaning tadqiqot predmetiga sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar va kategoriylar kiradi.

Psixologiya – odamning ob'ektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg'u-hissiyot va boshqa psixik holatlar orqali aks ettirish jarayonini o'rganadigan fan. Psixik holatlar – psixik hayot shakllari, diqqat, hissiyot, iroda jarayonlariga aytildi. P.H. (xushchaqchaqlik, ruhlanish, siqilish, ziyraklik, qat'iylik, tirishoqlik v.b.) shaxslarda ma'lum darajada barqaror bo'lib, ularning muayyan xususiyatiga ham aylanib qoladi. Psixologiya oliv o'quv yurtlarda o'quv predmeti va fan sifatida o'rganiladi. O'quv predmeti sifatida ta'lim muassasi o'quv rejasiga kiritilgan bo'lib, talabalarning umumkasbiy tayyorgarligiga yo'naltirilgan o'quv fanlari tizimidan joy olgan, uni o'rganish uchun ma'lum o'quv soatlari ajratilgan va turli shakldagi mashg'ulotlar: ma'ruza, seminar va laboratoriya-amaliy, shuningdek, nazorat ishlari va imtihonlar ko'zda tutilgan.[1]

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo'nalishdagi muammolarni ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini

taqazo etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqeい o'ziga xos va yetakchidir.

Pedagogik psixologiyaning amaliy vazifasi esa yoshlarni o'zlashtirishning psixologik shart-sharoitlari, tarbiyaning psixologik masalalari, bolaga ta'lim-tarbiya berishda ularni yoshlik va individual xususiyatlarini hisobga olish, yoshlarda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllanishi, mustaqil fikrlashga o'rgatish, ilmiy tushunchalar hosil qilish, o'z ustida ishlash, o'z-o'zini tarbiyalash, yosh o'qituvchilarni psixologik faoliyatga mehr-muhabbatini shakllantirish psixologiya fanining yutuqlarini, psixologik bilimlarni keng jamoatchilik e'tiboriga havola qilinishi, ot-onalar, tarbiyachi va o'qituvchilarni bulardan bahramand qilishdan iboratdir. Amaliy vazifalar radio va teleko'rsatuvlarda, jurnallarda, ma'ruza va maxsus ko'rsatuvlar orqali chiqish, mahalla, mакtab va ota - onalar bilan suhbatlashish orqali amalga oshiriladi.[2]

Ta'lim-tarbiyaning shaxsni kamol toptirish ishiga bog'liqligi milliy g'oyani shakllantiruvchi, takomillashtiruvchi va uni ommaga yetkazuvchi kuchlarga bog'liqdir. Psixologiya fani ham jahon fani taraqqiyoti hamda va uning takomillashib borish jarayonini, fanga kirib kelishi kutilgan yangiliklarni yanada aks ettiradi, albatta. Bu asosiy vazifa sifatida ilk bor qonuniy asoslarga ega bo'lmoqda va psixologiya fani oldiga muhim nazariy vazifalarni hal qilish qo'yilmoqda.

Psixologiya fani o'ziga xos fan bo'lgani uchun oliy o'quv yurtlari talabalari o'rganadigan ilmiy fanlar tizimida alohida o'rin egallaydi. Psixologiyaning fan sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat. Birinchidan, bu fan hozircha inson uchun noma'lum bo'lgan, eng murakkab – psixika, insonning ichki olami haqidagi fandir. Ikkinchidan, bu fanda biliшning ob'ekti va sub'ekti tutashib ketgan. Bu holat va fikrni shunday ifodalash mumkin: avval inson o'z fikrlarini tashqi dunyoga yo'naltirib, so'ngra o'ziga murojaat qiladi. Bunda fikr o'ziga qarata burilish yasagani uchun psixologiyaning vazifalari boshqa fan vazifalari bilan taqqoslab bo'lmaydigan darajada murakkabdir. Uchinchidan, psixologiyaning o'ziga xosligi uning noyob amaliy oqibatlarga ega bo'lishidir. Axir biror narsani anglash – uni egallab, boshqarishni o'rganishdan iborat. Insonning o'zida kechayotgan psixik jarayonlar, ularning vazifalari, qobiliyatlarini boshqarishni o'rganish murakkab va muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Bunda inson o'zini anglab borgani sayin o'zini va atrofidagilarni o'zgartirib borishini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Shuning uchun, psixologiya – insonni faqatgina anglovchi emas, balki uni yaratuvchi fan.[3]

Biz shu narsaga erishishimiz kerakki, keng jamoatchilik bola ruhiy taraqqiyotiga doyir psixologik bilimlardan bahramand bo'lsin. Ana shundagina biz yoshlarga haqiqiy ta'lim-tarbiya bera olamiz va uni muvaffaqiyatli amalga oshiramiz. Pedagogik psixologiya o'z predmetining mazmuniga qarab umumiy psixologiyada amal qiladigan ko'pgina metodlardan foydalanadi. Chunki zarur bo'lgan dalillarni qidirish, ularni sodir bo'lish sabablarini aniqlash va isbotlash turli xil metodlar vositasida bajariladi. Qaysi

metoddan foydalanishdan qat'i nazar, bu metodlar faqat xususiy ilmiy tadqiqot ishlari uchungina emas, balki amaliy ta'lim-tarbiya maqsadlarida bolani chuqurroq o'rganishni tashkil qilish uchun muhimdir. Ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri tashkil etish uchun pedagogik psixologiyada qo'llanadigan tadqiqot metodlari o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda maqsadga muvofiq va eng samarali metodlarni tanlashga asos bo'ladigan o'quvchilar shaxsining o'ziga xosligini yaxshi bilish lozim. Pedagogik psixologiyada qo'llanadigan metodlar ham psixologiya fanining tamoyillari va usullariga qo'yilgan talablarga riosa qilishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbek xalqi tarixan ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos dorilfunun yaratgan. Zotan, o'zbek madaniyati, chunonchi sharqona milliy tarbiya nazariyasi va amaliyoti uzoq moziygacha borib yetgan tarixiy ildizlar orqali oziqlanadi. Uning tarbiyaviy g'oyalari o'tgan har bir tarixiy davr va bosqichlar davomida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan holda tomir otdi.[4]

O'zbekistonda psixologiya 1928-yildan e'tiboran hozirgi Milliy universitetda fan sifatida o'qitila boshlandi. 1929-yil Xalq maorifi komissarligi qoshida psixologiya laboratoriyasi ochildi. Keyinchalik pedagogika institutlarida psixologiyaning bir necha sohalari bo'yicha talabalarga bilim berila boshlandi. XX asrning 2-yarmida M. Vohidov, M. Davletshin singari mahalliy kadrlar yetishib chiqdi. Hozirgi davrda psixologiya fanlari doktorlari V. Tokareva, E. G'oziyev, B. Qodirov, G'. Shoumarov, R. Gaynutdinov, V. Karimova, Sh. Barotov, A. Jabborov, R. Sunnatovalar psixologiyaning umumiy psixologiya, pedagogik va yosh psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya sohalari bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqdalar. Psixolog mutaxassislar tayyorlash va tadqiqot ishlar O'zbekiston milliy universiteti, SamDU, Farg'ona universiteti, Qarshi universiteti, Termiz universiteti bazalarida yo'lga qo'yilgan. O'zbekistonda psixologik xizmat joriy qilingan va uning tarmog'i tobora kengayib bormoqda.[5]

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki: Psixologiyaning fan sifatida yurtimizda rivojlanish tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak shuni ta'kidlash lozimki, u oxirgi o'n yilliklar mobaynida shakllanmoqda. Lekin tarixan, umuman psixologiyaning O'zbekiston hududida shakllanishini tahlil qilinsa, uning diniy-falsafiy olimlar va qarashlar tizimida o'ziga xos tarzda shakllanib kelayotganini ko'rish mumkin.

Tekshirish jarayonida kishining butun psixikasida, ongida aks etadigan jamiyatning moddiy nigizi undagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan birgalikda o'rganiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida psixik hodisalarning miqdor o'zgarishlarini sifat o'zgarishlarga o'tishi va bir sifat holatining ikkinchi sifat holatiga o'tishini kuzatib borish lozim. Masalan: o'quvchi psixikasining taraqqiy etishini o'rganib, ko'rib, bilim

olish, tajribalar toplash jarayonida o'quvchining bilish qobiliyatini, ya'ni xotira, tafakkur, fikr yuritishdagi sifat o'zgarishini bilib olsa bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.K.Mangal: "Umumiy psixologiya".2013y. 19 b.
2. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. «Umumiy psixologiya» Fan va texnologiyalar 2010 y
3. G'oziev E.G. "Umumiy psixologiya". Toshkent. 2002.1-2 kitob.
4. M.T.Toshtemirova "Pedagogika tarixi".Toshkent.2023y. 4 b.
5. Vikipediya